

O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARIDA AYOLNING ONALIK MAQOMI

Sheralieva Rohatoy

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik

tarjimashunoslik mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Ona ilohiy hisoblangan bebaho buyuk zotdir. Bu so‘z naqadar jarangli. Onaning oilada, jamiyatda o‘rni beqiyosdir. Ayolning ona bo‘lishi zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklanadi, shu bilan birga uning martabasi ham yuksaladi. Onalik darajasi oliy maqom hisoblanadi. Alloh rizoligiga erishish uchun eng avvalo ona roziligiga erishish lozimdir. Aytib o‘tilganidek “Onaning rizoligini olish bilan Alloh rizoligiga erishiladi”. Jannati mavolardan joy olish uchun ham onaizor rizoligi shart, - deb aytiladi. Hadisi sharifda bejizga “Jannat onalar oyog‘i ostidadur”, - deb aytilmagandir.

Ona bo‘lish ayollar tabiatiga xos bo‘lib, har bir ayolning eng katta orzusi hisoblanadi. Maqollarda ayolning farzand dunyoga keltirishi haqida ibratli iboralar mavjud. Onalik baxtiga erishgan ayol - eng baxtli inson hisoblanadi. “*Bolali xotin gul xotin, bolasiz xotin tul xotin*”, “*Xotinni yaxshisi ko‘rsatgan qo‘lidagi bolasi, daraxtni yaxshi ko‘rsatgan shoxidagi mevasi*” iboralarida farzandli ayol naqadar aziz va mo‘tabar, mevali daraxt ham o‘z mevalari ila buyuk va ulkan hamda azim deb e‘zozlanadi. Bu ikki o‘xshatish juda keng qamrovli, ma’nolari chuqur bo‘lgani holda insonni mulohaza qilib, fikr yuritishga chorlaydi.

Haqiqatda ham ona farzandi bilan aziz hisoblanadi. Daraxt mevasi, mazasi, ta’mi bilan bo‘lsa, ona esa farzandining odob-axloqi bilan obro‘-e’tiborga loyiq bo‘ladi.

Ona bilan bogliq maqollarda o‘gil farzand dunyoga keltirgan ayollarga avlodimning davomchisi, - deb alohida hurmat ko‘rsatilgan. Turklarda ham

o'zbeklardagi kabi o'gil farzand dunyoga kelsa, oilada quvonch cheksiz bo'lgan. "O'g'il tug'magan xotindan o'gloqlagan echki ortiq" (SH.1990:487). Bu maqolda naslni davom ettirishda o'gil farzand alohida o'rin tutishi ta'kidlangan. Bundan tashqari o'gil farzand tug'magan xotin oila tirikchiligi uchun sarf-xarajati kam erkak bilan qiyoslangan. "*O'g'il tug'mas xotin bo'lmas, mol topmas yigit bo'lmas*", "*Uringan xotin o'gil tug'adi*", "Uyni sarfini ko'tara olmagan erkak, erkak hisoblanmasdan, o'gil tug'magan xotin jamiyat ko'z o'ngida ayollar qatorida zaif hisoblangan. Yuqoridagi maqolda uringan xotin, albatta, niyatiga erishishi jamiyat ko'z o'gida qadrli insonga aylana olishi ta'kidlanmoqda.

Johiliyat davri - islomdan oldingi davrda oilada qiz tug'lsa, tiriklayin ko'mib yuborilgan. Islom dini kirib kelgach, bu xurofot barham topgan. O'g'il ham qiz ham Alloh ne'mati ekani tan olingan.

Maqollarda o'g'il bolaning mardlik, qahramonlik kabi maznundagi fazilatlari manbasi sifatida ona ko'rilgan, ya'ni hisoblangan. "*Tulpor biyadan, mard - onadan*", "*Alp otadan, zot onadan*" bu maqollarda onaning nasl nasabi kelib chiqishi kabi jihatllarga e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda ham "Sog'lom ona - sog'lom bola" davlat dasturi qabul qilingan bo'lib sog'lom onadan sog'lom farzand dunyoga keladi, kelajak yoshlar qo'lida, farzandlari so'lom yurt qudratli bo'lur - deb Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ijobiy loyiha va dasturlar asosida ibratli ishlarni amalga oshirganlar. Bugungi kunda bunday buyuk ishlarni amalga oshirishda davomli qonun va farmoyishlar ishlab chiqilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil boshida qabul qilingan qarori yurtimiz aholisi aziz onalari va farzandlari uchun amaliy loyiha deb hisoblasak yanglishmaymiz, chunki buning natijasi o'laroq har bir chekka qishloq va ovullarda QVP larni tashkil etish buning yaqqol

isbotidir. Ularni zamonaviy asbob uskunalar bilan jihozlanishi, malakali kadrlarning ish olib borayotganliklari diqqatga sazovordir.

Farzandlarni tarbiyalash ularni voyaga yetkazishda onaning tutgan oʻrni beqiyos ekanligini inkor etib boʻlmaydi. Bunda onaning yetukligi, aqli, odobi, mehnatsevarligi, insonparvarligi, samimiyligi kabi sifatlariga eʼtibor berilgan. Shu maqsadda quyidagi taʼsirli maqollar mavjudligini kuzatamiz: “*Otasi tentakning birisi tentak, onasi tentakning barisi tentak*” maqolida ota va onalar oilada qay darajada martabaga ega ekanliklari yoritib berilgan. Oʻzbek maqollarida onaning farzand tarbiyasidagi vazifa va masʼuliyatlarini taʼkidlab oʻtilgan. Shuning uchun farzand tarbiyasida ota-onalar oʻrnak boʻlishlari, ibrat koʻrsatishlari lozim. “*Erkalatsa onasi, taltayadi bolasi*” maqolida onani farzandiga nisbatan talabchan boʻlishiga undaladi. “*Bola - loy, ona - kulol*” maqolida onaning farzandi tarbiyasida istalgan yoʻnalishda yoʻl tuta olishi aytilmoqda. “*Ona bilan bola, gul bilan lola*” maqolida esa ona bola hayoti bogʻ sifatida tasvirlangan boʻlib, ilk taassurotni bola onadan olishi aytilmoqda. Guldek nozik qalbi, yoqimli ifori chechak misol bola qadamlariga oʻxshatilmoqda.

Onaning bolasiga nisbatan mehrini maqollarda ifodalangan. Qiyoslash bilan “*Ona mehri osmon*”, “*Ona mehribon, ota gʻamguzor*”. Ona sevgisi osmon qanchalik keng boʻlsa u ham shu qadar cheksizligiga ishora qilinmoqda. Farzandni oʻstirishda onadan mehr-shavqat, otadan chidamlilik saboqlarini oladi. Ota-onaning qadrini bilish haqidagi maqollar farzandlarga oʻgit sifatida talqin qilinadi: “*Asl parchaning bahosi boʻlmas, Ota-onaning qarisi boʻlmas*” (M.2003:228). Ushbu maqolda ota-onaning keksasi boʻlmasligi, asl molning bahosi yoʻqligi, asl oltin esa zanglamasligi, bahosi yoʻqligi taʼkidlanmoqda.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, barcha turkiy xalqlar singari turk xalqida ham ona maqomi ulugʻlangan, quyidagicha ifodalangan:

- ayolning eng sharaflı va mas'uliyatli maqomi;
- hayot davomiyligining ramzi;
- sog'lom avlod tarbiyasi uchun mas'ul inson;
- qiz farzanad tarbiyasida birinchi ibrat va namuna sohibasi;
- insonning chin do'sti va sirdoshi kabi tushunchalarni anglatadi.

Demak, eng avvalo ona hayotning davomchisidir. Har bir insonning Ona Vatani, onasi esa bitta bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, inson qaysi millat yki elat vakili bo'lmasin, avvalo, uni dunyoga keltirib, oq yuvib oq taragan Volidai-muhtaramasini ezozlaydi. Chunki, bizni yorug' dunyo yuzini ko'rishimizga sababchi bo'gan, mehrini berib issiq quchog'ida erkalab, ulg'aytirgan, ilk qadamlarimizni qo'yganimizda xursand bo'lgan, bizga hayot in'om etgan bu ulug' Zotlardan umrbod qarzdormiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi, 1990. – B. 91-99.
2. Sarimsoqov B., Maqollar / O'zbek folklori ocherklari. 1-jild. - T.: Fan, 1988. – B. 85-98.
3. O'zbek xalq maqolari. - T.: Fan, 1978.
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. - T., 1990. – B. 44.
5. Safarov O. Xalq ganjiga mehr / Folklor – bebaho xazina. - T.: Muharrir", 2010. – B. 285-298.
6. Hamidov X. Ayol – turk maqol va iboralarida. // Sharq mash'ali, B. 51-55.
Yana: Ayol va oila mavzusidagi turkcha m aqol va iboralarining o'zbekcha tarjimada berilishi. // "Sharq ayoli: kecha va bugun" mavzuidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. B. 168-170.

Internet saytlari:

1. <http://www.egitimsistem.com/anne-ile-ilgili-atasozleri-guzel-sozler-7447h.htm>
2. <http://www.nkfu.com/anne-ana-ile-ilgili-atasozleri-ve-anlamlari/>
3. [http://www.frmartuklu.org/konu/anneyle-ilgili-atasozleri 222342/](http://www.frmartuklu.org/konu/anneyle-ilgili-atasozleri_222342/)
4. [http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/qo'llanmalar/867-o'zbek-xalq-og'zaki-ijodi.](http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/qo'llanmalar/867-o'zbek-xalq-og'zaki-ijodi)